



№ 277

2025 yil «14» «yanvar»

Bankda xaridlar bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlashni (*keyingi o'rinlarda - tanlash*) amalga oshirish va o'tkazish maqsadida Bankning 2024-yil 13-maydagi 103-sonli buyrug'i bilan bankning tender va xarid komissiyalari tarkibi tasdiqlangan.

Bank Boshqaruvining 2024-yil 15-fevraldagi 75-sonli Qarori bilan "“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibi”ning yangi tahriri tasdiqlangan.

Ushbu tartibga asosan:

tanlash savdolarini o'tkazish uchun kamida **5 (besh) kishidan iborat bo'lgan “Xarid komissiyasi”** xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish chog'ida davlat buyurtmachisi tomonidan shakllantirilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh bankda xaridlarni amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etish hamda kollegial organlar rahbarlari va a'zolari o'rtasidagi ish hajmini to'g'ri taqsimlanishini tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Bankda Xarid komissiyasi quyidagi yangi tarkibda tuzilsin:

Xarid komissiya raisi - **D.Umarov** - Boshqaruv Raisining o'rinbosari;

Xarid komissiya raisi o'rinbosari - **Sh.Karimov** - Moliyaviy menejment xizmati rahbari o'rinbosari;

Xarid komissiyasi a'zolari:

B. Saidxonov - Transformatsiya va biznes jarayonlarini boshqarish departamenti direktori;

A. Kamalov - Bank tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish dipartamenti direktori;

M. Azimova - Yuridik departamenti Kontrakt va huquqiy ta'minlash xizmati katta menejeri;

2. Komissiya a'zosi mehnat yoki o'quv ta'tilida, vaqtincha mehnatga layoqatsiz yoxud xizmat safarida bo'lganida, vazifasi vaqtinchalik yuklatilgan yoki lavozim yo'riqnomasi bo'yicha vazifasini bajaruvchi shaxs komissiyada ishtirok etadi.

Komissiya a'zosi boshqa ishga o'tganda, u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki vazifasini bajarish zimmasiga yuklangan shaxs kiradi.

3. Shu munosabat bilan Bankning 2024-yil 13-maydagi 103-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari v.b. A.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi :



A.Akbarjonov

kelishuvchilar: B.Saidxonov, S.Karimov, S.Kurbonbekov, D.Umarov, A.Kamalov, U.Aminova, Ekler Orsolya

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=qR46IV34&id=e50ea693-27d9-492c-bcb6-774760905aca>